

Koronavirusning yangi "Omkron" shtammi bilan bog'liq yangi cheklovlar to'g'risidagi muhim ma'lumotlar

Hozirgi paytda Yaponiyaga turistik maqsadlarda yoki qarindoshlari va do'stlarini ko'rish maqsadida sayohat qilishni rejalashtirayotgan shaxslarga viza berish uchun hujjatlar qabul qilinmaydi.

2022-yil 5-yanvardan boshlab 28-fevralgacha viza olish uchun hujjatlarni qabul qilish faqat quyidagi maqomlardagi "Muvofiqlik sertifikati" sertifikatlari egalari uchun ko'rib chiqiladi:

- 1) 「日本人の配偶者または子 AS SPOUSE, CHILD OF JAPANESE」
- 2) 「永住者の配偶者等 AS SPOUSE OF PERMANENT RESIDENT」
- 3) 「定住者 AS LONG TERM RESIDENT」

hujjatlar "Muvofiqlik sertifikati"ning asl nusxasi asosida yoki istisno tariqasida ularning nusxalarida qabul qilinadi.

Yaponiyani vaqtincha tark etgan barcha uzoq muddatli (在留資格) maqomiga ega bo'lgan chet el fuqarolari, agar ularning pasportlarida qayta kirish ruxsatnomasi (re-entry permit) bo'lsa, Yaponiyaga vizasiz kirishlari mumkin.

"Muvofiqlik sertifikati" sertifikatlarining amal qilish muddati chuzdirish haqidagi muhim ma'lumotlar

Yangi koronavirus infektsiyasi bilan bog'liq hozirgi vaziyatda "Muvofiqlik sertifikati"ning amal qilish muddati quyidagicha uzaytirildi:

- 1) 2020-yil 1-yanvardan 2021-yil 31-oktabrgacha tuzilgan sertifikatlar 2022-yil 30-aprelgacha amal qiladi.
- 2) 2021-yil 1-noyabrdan 2022-yil 30-aprelgacha berilgan sertifikatlar berilgan kundan boshlab 6 oy davomida amal qiladi.

Ushbu masalalar bo'yicha barcha batafsil ma'lumotlar Yaponiya Immigratsiya xizmati agentligi xabarida (<https://www.moj.go.jp/isa/content/930005022.pdf>) va uning veb-saytida keltirilgan: https://www.moj.go.jp/isa/nyuukokukanri01_00155_1.html